

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI TARIXI

Matiyeva Yorqinoy Davronbekovna

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yoshlarga oid davlat siyosatining tashkil qilinishi, rivojlanish boshqichlari hamda bunda muhim ahamiyat kasb etgan siyosiy jarayonlar, qabul qilingan dastur va qonunlar roli bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *qonun, farmon, yoshlar, ta'lif, fan, loyiha.*

Аннотация: В данной статье описывается организация государственной политики в отношении молодежи, лидеры развития, а также роль политических процессов, принятых программ и законов, которые стали важными в этом.

Ключевые слова: закон, указ, молодежь, образование, наука, проект.

Abstract: This article describes the organization of the state policy on youth, development leaders, and the role of political processes, adopted programs and laws that have become important in this.

Key words: law, decree, youth, education, science, project.

Yoshlar siyosati O'zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, mamlakat kelajagini belgilovchi omillardan biridir. O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosati tarixiy jihatdan bir necha muhim bosqichlardan o'tgan.

Sovet davri (1924-1991): O'zbekiston Sovet Ittifoqining bir qismi sifatida yoshlar siyosati asosan kommunistik ideologiyaga asoslangan. Yoshlarni tarbiyalash, ularni ishchi kuchi sifatida tayyorlash va partiya siyosatiga yo'naltirishga qaratilgan dasturlar mavjud edi.

Mustaqillik (1991-yildan keyin): 1991-yilda O'zbekiston mustaqil davlatga aylandi va yoshlar siyosati yangicha yo'nalishlarga o'tdi. Davlat yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqdi.

Yoshlar qo'mitasi: 1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etildi. Bu tashkilot yoshlar bilan bog'liq muammolarni hal qilish, ularning ijtimoiy faoliyatini rag'batlantirish va o'zaro hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan.

Milliy dasturlar: 2000-yillardan boshlab, O'zbekiston yoshlar uchun bir qator milliy dasturlar ishlab chiqdi. Ular orasida ta'lif, sport, sog'liqni saqlash va ish bilan ta'minlashga qaratilgan loyihalar mavjud.

Yoshlar siyosati: Hozirgi kunda O'zbekistonda yoshlar siyosati innovatsion g'oyalarni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni, ta'lim va malaka oshirishni o'z ichiga oлади. Davlat rahbari yoshlar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratmoqda, bu esa ularning faoliyatini yanada kengaytirishga olib kelmoqda.

1991–1996 yillarni O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining me'yoriy-huquqiy jihatdan shakllanish davri sifatida baholash mumkin. Chunki yoshlarga oid davlat siyosatini belgilab beruvchi ilk huquqiy hujjatlarning ishlab chiqilishi va qabul qilinishi aynan shu davrga to'g'ri keladi.

1996 yilni O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning yangi bosqichi boshlangan davr sifatida e'tirof etishimiz mumkin. Aynan shu yilning 17 aprelida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi yoshlarining «Kamolot» jamg'armasi to'g'risida"gi PF – 1425-sonli farmoni e'lon qilindi. Ushbu farmon yangi shaklda tashkil etilgan yoshlar tashkilotining maqsad va vazifalarini belgilab berdi.

Jamg'arma o'z faoliyatini, asosan besh yo'nalishda tashkil etgan: ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, tadbirkorlik, sport va salomatlik hamda xalqaro hamkorlik sohalari. Ijtimoiy-siyosiy sohada jamg'arma qoshidagi Respublika huquqshunoslar assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida qator seminarlar hamda «Siz qonunni bilasizmi?» va «Siz tarixni bilasizmi?» ko'rik tanlovlari o'tkazila boshlandi⁴².

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan qator hujjatlarning imzolanishi, 2008 yilning "Yoshlar yili", 2010 yilning esa "Barkamol avlod yili" deb e'lon qilinishi yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish ishlarini yangi bosqichga olib chiqdi. Yoshlar tashkilotiga bo'lgan munosabat va uning imkoniyatlariga bo'lgan ishonch oshdi. Hududlarda o'tkazilgan festivallar doirasida 14 ta loyiha amalga oshirilgan. Ushbu loyihalari doirasida o'tkazilgan 980 dan ortiq tadbirlarda har yili 1 millionga yaqin yoshlar qamrab olinishiga erishilgan²³. O'zining oxirgi besh yilligi mobaynida Harakatning birgina ijtimoiy-xuquqiy sohadagi loyihalari salmog'i 5 karra, ishtirokchilar soni 8, ijtimoiy hamkorlari soni esa 2 barobar ko'paydi⁴³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018 yil 1 iyulda bo'lib o'tgan "Kamolot" harakatining IV qurultoyidagi nutqida ommaviy axborot vositalarida yoshlar muammosi ko'tarilmayotganini va yoshlarga mo'ljallangan

⁴² Мусаев Ш. Таинч нуқта // Жамият. – 2007.

⁴³ Кўзлари ёниб турган ёшлар таянчимиз, суюнчимиз, гуруримиздир // Халқ сўзи. – 2016. – 2 август. № 148 (6583).

gazetalarning nusxalari yetarli darajada bo'lmaganligini tanqid qiladi⁴⁴. Bundan tashqari, ko'pgina viloyat va tumanlarda "Kamolot" tashkilotlari uchun binolar etishmasligi, ularning moddiy-texnik bazasi nochorligi, zarur mebel va inventarlar, aloqa va tashkiliy texnika vositalari bilan yetarlicha ta'minlanmagani, xizmat mashinalari yo'qligi ham ishga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Misol uchun, hududiy bo'linmalarning 81tasi mahalliy hokimliklar binosida, 96 tasi turli korxona va muassasalar binosida joylashgan⁴⁵. Shuningdek, yoshlar bilan ishlashning yangi, zamonaviy texnologiyalari ishlab chiqilmagan va amaliyotga joriy etilmagan.

Mustaqillik yillarida ta'limga muassasalaridagi sharoitlarni yaxshilash orqali yoshlarning sifatlari ta'limga olishini ta'minlashga harakat qilinmoqda. Misol uchun, 1998–2012 yillarda ta'limga muassasalarini qurish va rekonstruktsiya qilishga davlat tomonidan 2703,0 mlrd hamda 2013 yilda 117,0 mlrd va 2014 yilda 135 mlrd so'mdan ortiq mablag' sarflandi. Ta'limga tarbiya sohasiga sarflanayotgan xarajatlar har yili YAIMga nisbatan 10 – 12 foizni tashkil etdi. Bu YUNESKOning mamlakatni barqaror rivojlantirishni ta'minlash uchun ta'limga yo'naltirilishi zarur bo'lgan investitsiyalar miqdori bo'yisha tegishli tavsiyalaridan qariyb 2 barobar ko'pdirdi⁴⁶.

Mazkur sharoitlar natijasida yoshlar xalqaro fan va musiqa tanlovlari faxrli o'rinni olishi yildan yilga osha boshladidi. Jumladan, 1991 yilda O'zbekiston musiqa konkurslarida 3 ta o'rinni olgan bo'lsa, 2009 yilda – 40, 2012 yilda – 85, 2013 yilda 107 nafar qobiliyatli yoshlar Xalqaro konkurslarda o'rinni egalladi⁴⁷. Shuningdek, 1995-2014 yillarda O'zbekiston yoshlari Xalqaro fan olimpiadalarida ham faol ishtirok etib, bir qancha mukofotlarni qo'lga kiritdi⁴⁸. Xulosa qilib aytganda hozirgi kunda bu yo'nalishdagi ishlar davom ettirilib, Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi qoshida "Yoshlar parlament"lari tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tashkil etildi. Hududlarda "Loyihalar fabrikasi" ish boshladidi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimlarida yoshlar masalalari bo'yisha o'rindbosar lavozimi joriy etildi. 2018 yildan boshlab, oliy

⁴⁴ Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Камолот» ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IVқурултойидаги нутқи. 1 июл 2017 й. // <https://www.gazeta.uz/uz/2017/07/01/nutq/>

⁴⁵ Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Камолот» ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IVқурултойидаги нутқи. 1 июл 2017 й. // <https://www.gazeta.uz/uz/2017/07/01/nutq/>

⁴⁶ Таянчимиз, гурур ва ифтихоримиз. Ёшларимизни ҳар томонлама кўллаб-куватлаш давлатимиз сиёсатининг энг муҳим устувор йўналишиларидан бирори // Халиқ сўзи – 2015. – 4 февраль.

⁴⁷ Доклад по целям развития тысячелетия Узбекистан 2015. – Ташкент, 2015. – С.35.

⁴⁸ Доклад по целям развития тысячелетия Узбекистан 2015. – Ташкент, 2015. – С.35.

ta'lim muassasalarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yisha prorektori lavozimi o'rniiga yoshlar bilan ishlash bo'yisha prorektori lavozimi joriy etildi hamda yoshlar bilan ishslash bo'yisha prorektorlarning faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash va sport masalalari bo'yisha maslahatchisi bo'linmalariga yuklandi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Доклад по целям развития тысячелетия Узбекистан 2015. – Ташкент, 2015. – С.35.
2. Кўзлари ёниб турган ёшлар таянчимиз, суянчимиз, ғуруримиздир // Халқ сўзи. – 2016. – 2 август. № 148 (6583).
3. Мусаев Ш. Таянч нуқта // Жамият. – 2007.
3. Таянчимиз, ғуур ва ифтихоримиз. Ёшларимизни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш давлатимиз сиёсатининг энг муҳим устувор йўналишларидан биридир // Халқ сўзи – 2015. – 4 февраль.
4. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Камолот» ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IVқурултойидаги нутқи. 1 июл 2017 й. // <https://www.gazeta.uz/uz/2017/07/01/nutq/>